

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI

Navruz Imamov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

Tillarni o'qitish kafedrasi katta o'qituvchisi

Munisa Karimova

Samarqand davlat chet tillar instituti katta o'qituvchisi

Umar Ahmadov

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, IK-722 guruh talabasi

ARTICLE INFO.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, internet, mobil tarmoq aloqalari, biznes, axborotlashgan jamiyat.

Annotatsiya

maqolada raqamli iqtisodiyotning mohiyati, uning boshqa rivojlangan mamlakatlardagi rivojlanish darajasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilib, hozirgi globallashuv sharoitida mamlakatimiz barcha sohalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishining obektiv zaruriyat ekanligini, raqamli iqtisodiyotda axborot texnologiyalarini o'rni ko'rsatib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

2020-yil mamlakatimizda «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb e'lon qilinish, bu borada katta ishlar boshlandi. Xususan, 28-aprelda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning «Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qabul qilindi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotni rivojlantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsiyalarning ahamiyati oshib bormoqda. Eng yangi texnologiyalar ishlab chiqarish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishi mumkin. Eng yangi texnologiyalar inson faoliyatining barcha yangi sohalarini va sohalariga kirib borishi bilan an'anaviy yondashuvlar va ish uslublari o'zgaradi.

Raqamli iqtisodiyot - bu xo'jalik faoliyatini yuritish bo'lib, bunda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko'rinshidagi ma'lumotlar bo'lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va shu qayta ishlash natijasini analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, texnologiyalar, qurilmalar, saqlash, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiriq qilishdir. Boshqacha qilib aytganicha, raqamli iqtisodiyot bu onlayn xizmatlar ko'rsatish, elektron tulovlar amalga oshirish, internet savdo, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarini raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'langan faoliyatdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) paydo bo'lishi va tarqalishi global iqtisodiyotga shu qadar ta'sir ko'rsatdiki, yangi bir hodisa - raqamli iqtisodiyot paydo bo'ldi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish barcha davlatlar va albatta xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ilmiy adabiyotlarda va matbuot sahifalarida raqamli iqtisodiyotga ko'plab ta'riflar berilgan, jumladan, xorijiy manbalarda raqamli iqtisodiyotga raqamli

axborot texnologiyalari va iqtisodiy agentlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish deb, boshqalarida esa uni xo'jalik sub'ektlarining internet bilan bog'langan holdagi iqtisodiy rivojlanish natijasi deb, ayrimlarida raqamli texnologiyalar va tegishli mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanish bo'yicha faoliyat, degan, ta'riflar mavjud. Raqamli iqtisodiyotga berilgan boshqa ta'riflarni ham keltirish mumkin. Darhaqiqat, raqamli iqtisodiyotga berilgan bu kabi ta'riflar uning mohiyatini to'g'ri ifodalab beradi, chunki raqamli iqtisodiyotga texnologiyalar va iqtisodiy agentlar yoki internet bilan bog'langan rivojlanish jarayoni sifatida qarash o'rinli, ammo unchalik yetarli emas, chunki raqamli iqtisodiyot, avvalo raqamli axborot texnologiyalarining rivojlanishi va barcha davlatlar ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlari taraqqiyotini ta'minlash bilan bog'langan. Shu sababdan raqamli iqtisodiyotga har bir mamlakat milliy iqtisodiyotining barcha tarmoqlariga va ijtimoiy hayotining turli jabhalariga zamonaviy axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish va undan unumli foydalanish natijasida iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlash, deb ta'rif berilsa yanada to'laroq bo'lar edi, deb hisoblaymiz

Aqilli texnologiyalari ta'siri ostida odamlarning turmush tarzi o'zgarib boshladi, foydalanuvchilar o'rtasidagi aloqalar o'zgardi - turli jug'rofiy mintaqalar, faoliyat sohalari va boshqalardagi odamlar o'rtasida aloqa o'rnatish imkoniyati paydo bo'ldi. Bu raqamli iqtisodiyotning asosi bo'lgan axborot aloqalarining jadal o'sishi.

Raqamli texnologiyalarning ta'siri global miqyosda ham, mahalliy darajada ham seziladi. Raqamli iqtisodiyot yangi ishlab chiqarishlarning kombinatsiyasi sifatida global iqtisodiyotning tez o'sib borayotgan qismidir. Yangi texnologiyalar yaxshi tashkil etilgan xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining ba'zi jihatlariga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatadi, bu asosan ishlaydigan mexanizmlarni - aloqa vositalarini yoki sanoat mashinalarini raqamli yoki raqamli mexanizmlarga almashtirish, shuningdek ularni yanada modernizatsiya qilishdan iborat.

Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalari bilan bog'langan elektron tijorat, tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish sohalari bilangina cheklanib qolmasdan, shu bilan birga, milliy iqtisodiyotning sog'likni saqlash, fan va ta'lim, qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, kadastr, arxiv, internet- banking kabi tarmoqlariga, ijtimoiy va huquqni muhofaza qilish sohalariga ham jadal kirib bormoqda va ularning har birida yuqori samara berishi ta'minlanmoqda. Raqamli iqtisodiyotning dastlabki poydevori axborot texnologiyalari hisoblanadi. Uni raqamli axborot texnologiyalari, deb atashsa to'g'riroq bo'lar edi, chunki axborot texnologiyalarining asosida tegishli raqamlar yotadi. Ularning evolyusiyasi bir necha bosqichlarga bo'linadi va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shubhasiz, raqamli axborot texnologiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyotining talabidan kelib chiqqan obektiv jarayondir. Bugungi kunda raqamli axborot texnologiyalarini targ'ib qilishning asosiy maqsadi har qanday strategik vazifalarni hal etishga, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni optimal boshqarishni amalga oshirish bo'yicha qarorlar qabul qilishga imkon beradigan darajadagi axborot texnologiyalari tizimini yaratishdir. Bu esa raqamli iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsiy kompyuterlarning paydo bo'lishi raqamli axborot texnologiyalarini rivojlantirishda muhim bosqich bo'ldi. Yangi axborot texnologiyalari tizimlarini yaratish va undan foydalanish - bu mavjud ehtiyojlarni qondirish imkoniyatidir. Bunday holatda barcha foydalanuvchilar raqamli axborot texnologiyalarini ilgari surishda faol ishtirok etadilar.

Raqamli iqtisodiyotning o'sishi raqamli va mobil texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lgan bir qator bozorlarning o'sishi bilan bog'liq. Texnologiyalar rivojlanishining hozirgi bosqichida va bozorlarning hozirgi holati sharoitida raqamli iqtisodiyotni maqsad sifatida emas, balki iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish vositasi sifatida ko'rib chiqish kerak. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot yangi biznes modellarini taklif qiladi va boshqaruv mexanizmlarini o'zgaruvchan voqelikni aks ettirish uchun o'zgartirish zarurligini ta'kidlaydi.

Bugunga kelib raqamli axborot texnologiyalari axborotlarni ommaviy va tezkor ishlov berishga yo'naltirilgan. Ular rahbarlarning oqilona qarorlar qabul qilishiga, o'zgaruvchan bozorning mumkin

bo'lgan kutilmagan hodisalaridan himoyalaniishiga, raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratib, natijada muvaffaqiyatga erishishlariga yordam berishlari kerak. Hozirgi davrda raqamli axborot texnologiyalarini rivojlantirishning eng mashhur va keng tarqalgan texnologik vositalari Internet hisoblanadi. Jahonda axborot texnologiyalarining uzoq vaqt davomida tarqalishi mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanish yo'llarini belgilab berdi, insonlar hayotidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi va fanda raqamli iqtisodiyot terminining paydo bo'lishiga tamal toshini qo'ydi. Bu har bir mamlakat milliy iqtisodiyotini optimal darajada rivojlantirish va shu orqali xalqning moddiy farovonligini ta'minlashdan iboratdir. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida raqamli axborot texnologiyalarini jadal sur'atlar bilan joriy etish barcha mamlakatlar uchun ustuvor masaladir.

Raqamli texnologiyalarni joriy qilish va uni jadal sur'atlarda rivojlantirish qator davlatlar uchun ustuvor yo'nalishlarning eng asosiyiga aylanib ulgurdi. Ular raqamli rivojlanishni amalga oshirish davrining uzoq davom etishi, ustuvorliklarning uzluksizligi, asosiy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yaratishdan boshlab, ushbu sohada maqbul siyosatni shakllantirishga va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish dasturlarini qo'llabquvvatlashi bilan ajralib turadi.

O'zbekistonning keyingi iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan tasavvur qilish qiyin. Afsuski, Respublikada bu sohada ikkita katta muammo mavjud: telekommunikatsiya infratuzilmasi va mutaxassislarining yetishmasligi. Bu Respublikamiz iqtisodiyotining raqamli aylanishiga jiddiy to'sqinlik qilishi va natijada raqamli iqtisodiyot sohasidagi sustlashishi mumkin.

- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 3 iyuldagi PQ - 3832-sonli Farmoni.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2018 yil 21 noyabrdagi PQ - 4022-son qarori.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.03 yildagi PQ-3832- sonli «O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish choratadbirlari to'g'risida» hamda zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan blokcheyn texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining maqsadlariga muvofiq quyidagilar qabul qilindi:
- An'anaviy iqtisodiyotni raqamli iqtisodiyotga aylantirishda muvaffaqiyatga erishish uchun malakali kadrlar tayyorlashsiz muammoli ekanligi ma'lum bo'ldi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan Sh.M. Mirziyoyevning 2018 yil 3 iyuldagi PQ-3832-sonli Qarori asosida Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bakalavrlarni tayyorlash uchun raqamli iqtisodiyot fakulteti ochildi va Samarqand davlat universiteti iqtisodiyot va biznes fakulteti negizida raqamli iqtisodiyot sohasida malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha magistratura ochildi. Raqamli iqtisodiyot - dunyo iqtisodiyotida yangi yo'nalish. Iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar bu yo'nalishda sezilarli yutuqlarga erishgan bo'lsa, boshqalari bu yo'nalishda ilgari borishmoqda.

Xulosa o'rinida aytish mumkinki, Raqamli iqtisodiyotni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va Global Internet tarmog'isiz tasavvur qilib bo'lmaydi. "Raqamli iqtisodiyot", AKT va Internet tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog'liqdir

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasi.//Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar, 19-soni.

2. Utkin V.B.,Baldin K.V. Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari.-O'quv qo'llanma (rus tilida).- M.: UNITI, 2018.
3. Jumanova S. Raqamli iqtisodiyot: taraqqiyot sari yo'l.//Yangi O'zbekiston, 2020 yil 28 yanvar, 2-soni.
4. Zubaydova, N. N. M. (2020). THE ROLE OF COUNTRY STUDIES IN TEACHING ENGLISH. *Theoretical & Applied Science*, (4), 310-312.
5. Fayzullayeva, M. B. (2022). THE PROBLEMS OF USAGE INFORMATION COMMUNICATION TECHNOLOGIES (ICT) IN ENGLISH CLASSROOM. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 725-730.